



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 10-aprel

268-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimiligi

Chinoz tumanida bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 198-sonli qaroriga asosan, Chinoz tuman hokimining 2025-yil 2-apreldagi 171-sonli xati hamda taqdim etilgan hujjatlarini ko‘rib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 45¹-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasiga asosan, **qaror qilaman:**

1. Chinoz tumani hokimining 2025-yil 2-apreldagi 171-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chinoz tumanining T.Ernazarov hududidagi qishloq xo‘jaligi xaritasining 2, 4, 5, 7, 8 va 9-konturlardagi 23,02 gektar yer maydonlari davlat zaxira yerlari tarkibiga o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydoni bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydoni hisoblanishini inobatga olib, davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

3. Chinoz tumani hokimligi ilovada keltirilgan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtma bersin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (J.Axrоров) tuman hokimligi buyurtmasiga asosan, bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amaldagi qonunchilikka asosan, belgilangan tartibda amalga oshirsin.

5. Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (R.Norbo‘tayev) bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish choralari ko‘rsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i X.Qoraboyev zimmasiga yuklatilsin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev